O'zbekiston ijtimoiy hayotida mahalla instituti tarixan asrlar davomida shakllanib, bugungi kunda ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tizimining asosiy bo'g'ini sifatida faoliyat yuritmoqda. Xususan, davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida mahallalarning faol ishtiroki aholiga yaqin va qulay xizmatlarni ta'minlash, mahalliy muammolarni tezkorlik bilan hal etish hamda davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Biroq mahalla institutlarining tizimli elementlarini yagona nazariy yondashuv asosida izohlash hali to'liq shakllanmagan. Ilmiy qarashlarda turlicha yondashuvlar mavjud: ayrim tadqiqotchilar, avvalo, moliyaviy va inson resurslarini ta'kidlab, mahalla institutlarining bu boradagi salohiyatini asosiy tarkibiy qism sifatida ko'rsatadilar. Boshqa olimlar esa mahalla tizimida ijtimoiy sohaga aloqador butun bir yo'nalishlarni ajratib, ularni turli mezonlar asosida birlashtiradilar. Bu esa, o'z navbatida, mahalla institutlarining elementar tarkibini aniqlashda murakkablik va noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Mahalla institutlari tarkibidagi makro va mikro darajadagi quyi tizimlarni tahlil qilish S.V. Andrianov, A.B. Garmayev, D.S. Lvov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ma'lum darajada o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, ularning keltirgan tasniflari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi (Bukhvald & Voroshilov, 2018).

Shuningdek, Turkiyada "Mahalle / Muhtar" tushunchasi mavjud va har bir mahalla (mahalle) mahalliy darajadagi eng quyi bo'linma bo'lib, mahalla muhtarligi (Muhtarlik) tomonidan boshqariladi. Mahallelar mahalliy muammolar, aholining murojaatlari va ma'lumotlar oqimini boshqarish nuqtayi nazaridan davlat idoralari bilan aloqada bo'ladi (Bayraktar, 2007).

Janubiy Koreya misolida ko'radigan bo'lsak, *decentralizatsiya* jarayonlari, ya'ni davlat vakolatlarining markazdan mahalliy kichik darajaga o'tkazilishi fuqarolarning davlat idoralariga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi, biroq bu jarayonda mintaqaviy notekislik va boshqaruv resurslari cheklanganligi muammolari ham paydo bo'lishi mumkin (Lee & Suh, 2021).

Bularning hammasi O'zbekiston sharoitida ham tatbiq etilishi mumkin bo'lgan tajribalardir. Shu bois mazkur maqolada davlat xizmatlarini ko'rsatishda mahalla va davlat organlari o'rtasidagi integratsiya mexanizmlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish *asosiy maqsad* qilib olindi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mahalla institutlari sifatida faoliyat yurituvchi fuqarolar yig'inlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Ularning faoliyati mahalliy ahamiyatga molik masalalarni aholining manfaatlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, tarixiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, milliy qadri-

yatlar, mahalliy urf-odatlar hamda an'analarga asoslanib, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Fuqarolar yig'ini yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda faoliyat yuritadi.

Bunday sharoitda mahallalarning ijtimoiy vazifalari, xususan, aholining turmush darajasi, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishdagi imkoniyatlari zamonaviy yondashuvlar va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini qo'llashni taqozo etadi. Shu bois, mahallalar boshqaruvini tadqiq etishda nafaqat tarixiy va huquqiy asoslar, balki xalqaro tajribalar hamda ijtimoiy innovatsiyalarni integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi (Republic of Uzbekistan, 2013).

Shuningdek, xorijiy tadqiqotlar orasida Jon Smit tomonidan Yevropa mamlakatlaridagi mahalliy boshqaruv tizimlariga oid olib borilgan izlanishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, mahalla va jamoa boshqaruv institutlari demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi (Smith, 2018). Bundan tashqari, Anna Myuller o'z tadqiqotlarida mahalliy boshqaruvda innovatsion texnologiyalarning qo'llanishi, elektron xizmatlarning kengayishi va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishdagi yondashuvlarni tahlil qilgan. U, ayniqsa, mahalliy boshqaruv tizimlarining zamonaviy innovatsiyalarni qabul qilish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratgan (Müller, 2021).

Mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning mahalliy boshqaruv sohasidagi ilmiy izlanishlari ichida A. Axmedovning ishlari alohida e'tiborga loyiq bo'lib, u mahalla institutlarining huquqiy negizlari, ularning milliy o'ziga xosligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli bo'yicha chuqur tahlillarni taqdim etadi. Axmedov mahalla boshqaruvining institutsional tuzilishi, vakolatlar taqsimoti va mahalliy hamjamiyatni jalb etish mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash zaruriyatini asoslab beradi (Akhmedov, 2020).

B. Vahobovning (2021) ilmiy izlanishlari mahalliy boshqaruv institutlarining ijtimoiy

hamkorlikni shakllantirish va rivojlantirishdagi o'рни hamda ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Uning tadqiqotlarida mahalliy boshqaruv subyektlari va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarining huquqiy hamda tashkiliy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, S. Karimovanning (2019) ilmiy tadqiqotlari mahalla boshqaruvining iqtisodiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdagi o'рни, shuningdek, bu jarayonlarda xususiy sektor bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalarini tahlil qilishga qaratilgan. Olimaning ta'kidlashicha, mahallalar faoliyatida iqtisodiy barqarorlikka erishish, avvalo, mavjud moliyaviy resurslarning oqilona va shaffof taqsimlanishiga, ularning ijtimoiy infratuzilma hamda aholi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishiga bevosita bog'liqdir.

Mahalla institutlari boshqaruvini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazalar tahlilida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va qonunlari muhim manba sifatida xizmat qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabr-dagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son Farmonida mahallalarning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda rolini oshirish va ularning huquqiy maqomini mustahkamlash ko'zda tutilgan (President of Republic of Uzbekistan, 2021). Mazkur hujjatning asosiy maqsadi aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy etishdan iboratdir.

Umuman olganda, mazkur farmon mahalla miqyosida tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Ko'pchilik olimlar va amaliyotchilar ta'kidlaganlaridek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish islohotlarning asosiy maqsadlari va vazifalariga baribir erishilmadi (Shugrina, 2015).

Asosiy qism

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya jarayonlari izchil rivojlanmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat boshqaruvining barcha darajalarida, jumladan, mahalliy hokimi-

yat organlari tizimida ham raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur strategiyada xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini takomillashtirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish hamda mahallaning jamiyatdagi rolini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni (President of Republic of Uzbekistan, 2023) bilan tasdiqlangan ushbu strategiyada mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, inson kapitalini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ekologik xavfsizlik, raqamli transformatsiya va "xalq xizmatidagi davlat" tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish bo'yicha asosiy ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Ushbu strategiya doirasida davlat boshqaruvini zamonaviy raqamli tamoyillar asosida tashkil etish, xalq xizmatidagi davlat konsepsiyasini hayotga tatbiq etish va mahalla tizimining boshqaruvdagi o'rnini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, strategiyada mahallalarni jamoatchilik va davlat organlari o'rtasidagi "tayanch ko'priklarni" sifatida rivojlantirish, ularning mablag'larini aholi tashabbuslari asosida yo'naltirish hamda mahallalarda *100 dan ortiq davlat xizmatlarini "bir darcha" tamoyili* asosida raqamli shaklda ko'rsatish vazifalari belgilangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida (Mirziyoyev, 2025) mamlakatimiz taraqqiyotining oltinchi ustuvor yo'nalishi sifatida zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimini shakllantirish masalalari alohida va batafsil belgilab berildi. Avvalo, 2026-yildan boshlab Elektron hukumat platformasini tubdan yangilash vazifasi qo'yildi. Unga barcha davlat idoralarining mingdan ortiq davlat xizmatlari, minglab funksiyalari, yuzlab ma'lumotlar bazalari hamda o'n minglab davlat xizmatchilarining turli darajadagi vakolatlari yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi.

Murojaatnomada alohida ta'kidlanganidek, ushbu platformada murojaatlarni qabul qilish, ijrochilarga taqsimlash va bajarilish muddatlarini nazorat qilish jarayonlari sun'iy intellekt asosida amalga oshiriladi. Natijada mahalladan tortib respublika darajasigacha bo'lgan har bir masala

bo'yicha ijrochi, muddat va resurslar aniq ko'rib turadi.

Eng muhim jihatlardan biri – davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilisiz, korrupsiya va ortiqcha byurokratiyadan xoli raqamli ekotizm yaratishdir. Davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko'rsatish tizimi rivojlantirilib, 2026-yilda bunday xizmatlar soni 100 taga yetkazilishi belgilandi. Bu fuqarolar uchun davlat xizmatlarining haqiqiy ma'noda "bir darcha" tamoyili asosida ishlashini ta'minlaydi.

Murojaatnomada fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan siyosatni kelgusida ham izchil davom ettirish ko'zda tutildi. Xususan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha besh yillik strategiya ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda. Mazkur strategiya fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ularning ijtimoiy ahamiyatiga ega tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Amaliyotda bu yondashuvlar mahalla institutining davlat boshqaruvidagi o'rnini mustahkamlash, aholi muammolarini tezkor hal etish, davlat xizmatlarining shaffofligi va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Jumladan, mahalla mablag'larini aholining taklif va tashabbuslari asosida infratuzilma loyihalariga yo'naltirish mexanizmi joriy qilinib, bu maqsadlar uchun ajratiladigan resurslar hajmini bir necha barobarga oshirish choralari ko'rilmogda.

Shuningdek, har bir mahallada "elektron xizmat nuqtalari" tashkil etish, aholiga raqamli platformalar orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish hamda fuqarolarning murojaatlari va takliflarini onlayn kuzatish tizimlarini joriy etish rejalashtirilgan (President of Republic of Uzbekistan, 2023).

Xorij tajribalariga nazar tashlasak, Estoniya bugungi kunda raqamli davlat qurishda dunyodagi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. "E-Estonia" loyihasi orqali 99 foiz davlat xizmatlari onlayn ko'rinishda amalga oshiriladi. Mahalliy boshqaruv organlari aholining ro'yxatga olinishi, ijtimoiy yordamlar taqsimoti, soliqlarni yig'ish kabi vazifalarni to'liq raqamli shaklda bajaradi (e-Estonia, n.d.).

Bugungi kunda *my.gov.uz*, *onlayn-mahalla.uz*, *soliq.uz* kabi elektron portallar aholiga davlat

xizmatlarini soddalashtirilgan tarzda taqdim etmoqda. Shuningdek, *“mahalla yettiligi”* tizimi doirasida elektron hisobotlar yuritilishi boshlangan. Ammo bu yo'nalishda hali to'liq raqamli ekotizim shakllanmagan. Mahalliy hokimiyatlarning texnik bazasi, kadrlar malakasi, ayrim hududlarda internet infratuzilmasi yetarli emas. Bu esa raqamli xizmatlarning sifatli ishlashiga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda PQ-62-son qaroriga (President of Republic of Uzbekistan, 2021) muvofiq, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzurida Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyati tashkil etildi. Ushbu qaror asosida ishlab chiqilgan *“Onlayn mahalla”* elektron platformasi mahallabay ishlash tizimini raqamlashtirish, fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy holatini real vaqt rejimida tahlil qilish, shuningdek, ularning bandligini ta'minlash va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil etish uchun ushbu platforma ishlab chiqildi).

“Onlayn mahalla” platformasining joriy etilishi mahalla boshqaruvida raqamli texnologiyalarni amaliyotga samarali tatbiq etish borasidagi muhim qadamlardan biridir. Ushbu tizim mahallabay yondashuvni real vaqtda boshqarish imkonini yaratib, fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini tizimli hal etish, ijtimoiy yordamni manzilli ko'rsatish hamda davlat xizmatlarini qulay va shaffof qilishda katta imkoniyatlar eshigini ochdi.

Umuman olganda, *“Onlayn Mahalla”* tizimi mahalliy boshqaruvda raqamli transformatsiyaning amaliy ifodasi sifatida, hududiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning hayot sifati yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu platforma bir necha davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro integratsiya qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan:

– elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi – fuqarolarning pasport, manzil, sudlanganlik, narkologik va psixologik dispanserda turish yoki turmaslik, soliq qarzi mavjudligi, davlat soliq organlaridan ro'yxatdan o'tganligi, nomida uy-joy borligi yoki yo'qligi, kadastr hujjatlari ma'lumotlari, pensiya, nafaqa, tug'ilish, o'lim, nikoh, *“ijtimoiy himoya yagona reyestri”*, *“yoshlar daftari”*, *“ayollar daftari”* va *“temir daftar”* da tur-

ganligi yoki turmaganligi, tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi, nogironlik haqida ma'lumotlar jamlangan;

– Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari markazi – fuqarolarning tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi haqidagi ma'lumotlarni o'zida saqlaydi. Bu markaz, shuningdek, davlat xizmatlarining samaradorligini ta'minlashda ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi *“Ma'muriy islohotlar doirasida Adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida”*gi PF-80-son Farmoni (President of Republic of Uzbekistan, 2024) ushbu ishlarning asosi sifatida qabul qilingan.

Ushbu farmon doirasida Adliya organlari faoliyatini hududlarda samarali tashkil etish hamda huquqiy xizmatlar qamrovini yanada oshirish maqsadida tuman (shahar) adliya bo'limlariga bir nechta qo'shimcha vazifalar yuklatildi. Jumladan, mahallalarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan dolzarb muammolarni ko'rib chiqish va hal etish uchun har oyda *“Adliya kuni”* tadbirlarini o'tkazish ko'zda tutildi. Bunda olis mahalla hududlarida har oyda kamida ikki marotaba sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatib borish ham nazarda tutildi. *“Mahalla yettiligi”*ga qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini oddiy va xalqchil tilda yetkazish, shuningdek, ular tomonidan *“Onlayn mahalla”* platformasiga kiritilgan aholining kundalik hayotidagi huquqiy masalalarga oid muammolarni hal etib borish belgilandi.

Farmon doirasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislarining huquqiy bilim va ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borishga qaratilgan *“Mahalla huquqshunosi”* nomli qisqa muddatli bepul o'quv kurslari tashkil etish nazarda tutilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar matnlari *ljro.gov.uz* idoralararo yagona elektron ijro intizomi tizimi va *Raqamli mahalla* yagona platformasi orqali respublika-viloyat-tuman-mahalla tamoyili asosida davlat organlari va tashkilotlariga hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga taqdim etiladi, shuningdek, ushbu organlar faoliyatiga taalluqli hujjatlar majburiy tanishish uchun yuboriladi.

Adliya organlari faoliyatini transformatsiya qilish, davlat xizmatlarini ko'rsatish va norma

ijodkorligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qabul qilingan bo'lib, ushbu rejaning 12-band 4-qismida "Barcha aholi gavjum joylarni, shu jumladan, mahallalarni 24/7 rejimida onlayn davlat xizmatlarini ko'rsatadigan interaktiv kiosklar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash" ko'zda tutilgan (President of Republic of Uzbekistan, 2024). Ayrim mahalla fuqarolar yig'inida test rejimida ushbu kiosklar o'rnatilib, ishlash faoliyatlari o'rganilmoqda.

Ichki ishlar vazirligi – bu davlatning fuqarolarni tartibga solishdagi asosiy tizimi bo'lib, undagi doimiy va vaqtinchalik yashash joyi bo'yicha fuqarolarning ro'yxatdan o'tganligi haqidagi ma'lumotlar turli ijtimoiy xizmatlarga integratsiya qilishda foydalaniladi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi – bo'sh turgan ish o'rinlari, fuqarolarning ishga qabul qilingan yoki bo'shatilganligi, bandlik holati, kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha o'qishga yo'naltirilganligi haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

Moliya vazirligi – Moliya vazirligi tomonidan olib borilayotgan tadbirlar orqali ijtimoiy himoya yagona reyestrda ro'yxatdan o'tgan fuqarolar haqida ma'lumotlarni qamrab oladi. Bu ma'lumotlar fuqarolarga yordam ko'rsatish, subsidiya yoki boshqa ijtimoiy yordamlarni taqdim etish uchun ishlatiladi.

Davlat soliq qo'mitasi – Davlat soliq qo'mitasi tomonidan nazorat qilinadigan o'zini o'zi band qilgan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Bu ma'lumotlar, soliq to'lovchilarning qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlash va soliq olish jarayonlarini soddalashtirish uchun muhimdir.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan *E-auksion* elektron xaridlar tizimiga chiqarilgan mol-mulk ma'lumotlari tizim orqali davlat mulkini onlayn tarzda sotish yoki ijaraga berish imkoniyatlarini taqdim etadi.

"Hunarmand" uyushmasi – hunarmand sifatida ro'yxatdan o'tgan fuqarolar haqida ma'lumotlar, ularning faoliyati, imkoniyatlari va o'z sohasidagi muvaffaqiyatlarini oshirish uchun qo'llaniladigan dasturlarni o'z ichiga oladi.

Har bir manba platformadagi boshqa vazirliklar va idoralar bilan integratsiyalashgan bo'lib, bu tizim ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy ma'lumotlarni bir joyda to'plash va ulardan samarali foydalanish

imkonini yaratadi. Bu jarayonning maqsadi – fuqarolarning ehtiyojlarini aniq aniqlash va ularga tezkor yordam ko'rsatish, shuningdek, bandlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdir.

Olib borilgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, mahalla boshqaruvini takomillashtirish jarayonida bir qator omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, huquqiy-me'yoriy asoslarning mustahkamlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda ijtimoiy innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi jarayon samaradorligini oshiradi. Mahalla faollari va aholining faol ishtiroki orqali ijtimoiy masalalarni tezkor va samarali hal etish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, natijalar shuni ko'rsatadiki, mahalla boshqaruvini rivojlantirishda davlat organlari bilan mahalliy jamoalar hamkorligi, xususiylar bilan o'zaro aloqalar hamda mavjud resurslardan oqilona foydalanish muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, mahalla boshqaruvining davlat organlariga murojaat va so'rovlar yuborish faoliyati fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy hamda huquqiy manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Mazkur institut fuqarolar va davlat o'rtasida samarali vositachi sifatida faoliyat yuritib, hududiy muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda vakolatli idoralarga murojaat qilish orqali davlat siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, mahalla boshqaruvi aholining huquqiy manfaatlarini ifodalovchi va ularni davlat organlariga yetkazuvchi demokratik institut sifatida ko'rinishi lozim.

Mahalla institutlariga davlat tomonidan ko'rsatiladigan institutsional qo'llab-quvvatlash ularning faoliyat sifatini oshirish, davlat bilan muvoqot samaradorligini kuchaytirish va mahalliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning barqaror rivojlanishi hamda fuqarolarning farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi omil sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, mahalla boshqaruvini takomillashtirish O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Kelgusida mahalla institutlarini yanada rivojlantirish uchun ularning boshqaruv jarayonlariga zamonaviy menejment texnologiyalari,

innovatsion usullar hamda axborot-kommunikatsiya vositalarini keng tatbiq etish lozim. Bunda mahalla faoliyatini baholashning aniq mezonlari va samaradorlik indikatorlarini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Chunki bugungi kunda mahalla institutlari faoliyatining yagona standartlari mavjud emas va universal yondashuvni ishlab chiqish murakkab hisoblanadi. Shu sababli hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda maxsus indekslar va ko'rsatkichlarni ishlab chiqish va ularni tizimli ravishda tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, mahalla institutlari davlat boshqaruvi bilan uzviy hamkorlikda faoliyat yuritishi, davlat siyosatini mahalliy darajada amalga oshirishda bevosita ishtirok etishi lozim. Shuningdek, ularning institutsional mustaqilligi ham saqlanishi kerak. Zero, bu ikki yo'nalishning muvozanatli uyg'unligi mahalla boshqaruvining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, aholining huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda jamiyatning demokratik rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida mahalla insti-

tutlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik samaradorligi yetarli darajada yuqori emas. Mahalla boshqaruvining mavjud imkoniyatlari ko'p hollarda faqat ijtimoiy muammolarni aniqlash va davlat organlariga murojaat yuborish bilan chegaralanib qolmoqda. Aslida esa mahallalar aholiga davlat xizmatlarini bevosita yaqinlashtirish, ularning tezkor, qulay va shaffof ko'rsatilishini ta'minlashda strategik institut bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, bir nechta mualliflik takliflari ishlab chiqildi:

- mahalla raisi va faollariga aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda yuridik jihatdan vakolat beruvchi maxsus norma (masalan, fuqarolarning ayrim hujjatlarni olish, ariza topshirish va ro'y-xatga olish jarayonlarini to'g'ridan to'g'ri mahalla darajasida amalga oshirish huquqi) ishlab chiqilishi lozim;

- mahalla va davlat xizmatlari markazlari o'rtasida hamkorlik shartnomalari (memorandumlari) huquqiy asosda mustahkamlanishi kerak;

- mahalla faoliyatini samaradorlik indikatorlari asosida baholab, yuqori natija ko'rsatgan mahallalarni differensial moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish zarur.

REFERENCES

- Akhmedov, A. (2020). *Mahalla boshqaruvining ijtimoiy funksiyalari* [Social functions of mahalla management]. Innovative Development.
- Bayraktar, S. U. (2007). Turkish municipalities: Reconsidering local democracy beyond administrative autonomy. *European Journal of Turkish Studies*, 36. <https://doi.org/10.4000/ejts.1103>
- Bukhvald, E. M., & Voroshilov, N. V. (2018). Aktualnye voprosy razvitiya munitsipalnykh obrazovaniy i reformirovaniya instituta mestnogo samoupravleniya [Current issues of municipal development and reforming the institution of local self-government]. *Economic and social changes: facts, trends, forecast*, 11(1), 132–147.
- e-Estonia. (n.d.). *Government solutions*. <https://e-estonia.com/solutions/government/>
- Karimova, S. (2019). *Iqtisodiy rivojlanishda mahalliy boshqaruvning o'рни* [The role of local government in economic development]. Fan.
- Lee, J. H., & Suh, J. (2021). Decentralisation and government trust in South Korea: Distinguishing local government trust from national government trust. *Asia & the Pacific Policy Studies*, 8(1), 68–93. <https://doi.org/10.1002/app5.317>
- Müller, A. (2021). *Innovation in local government: Digital transformation, electronic services, and barriers to adoption*. Palgrave Macmillan.
- President.uz. (2025, December 26). *Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan*. Official Website of the President of the Republic of Uzbekistan. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
- President of the Republic of Uzbekistan. (2021, December 24). *Resolution "On measures to organize the activities of the Agency for Work Mahallabay and Entrepreneurship Development under the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction"* (No. RP-62). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/5792131>

President of the Republic of Uzbekistan. (2021, December 3). *Decree "On priority areas of state policy for the development of entrepreneurship in the mahalla, ensuring population employment and reducing poverty"* (No. DP-29). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/5753823>

President of the Republic of Uzbekistan. (2023, September 11). *Decree "On the 'Uzbekistan – 2030' strategy"* (No. DP-158). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6600413>

President of the Republic of Uzbekistan. (2024, May 24). *Decree "On further increasing the responsibility of justice bodies and institutions within the framework of administrative reforms and forming a compact management system"* (No. DP-80). Lex.uz. <https://lex.uz/en/docs/6937312>

Republic of Uzbekistan. (2013, April 22). *Law "On citizens' self-government bodies"* (No. LRU-350). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/2157501>

Shugrina, E. S. (Ed.). (2015). *Doklad o sostoyanii mestnogo samoupravleniya v gosudarstve [Report on the state of local self-government]*. Prospekt.

Smith, J. (2018). *Local governance models in Europe: Democratization and community participation*. Cambridge University Press.

Vahobov, B. (2021). *Davlat va mahalla boshqaruvi o'rtasidagi munosabatlar [Relations between state and mahalla management]*. Adolat.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 3-SON

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.3>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>